



**GIYOHVANDLIK YOXUD ZAHARLI QOTIL**

**Isomiddinova Kamola**

*Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi*

Deyarli har kuni ijtimoiy tarmoqlarda turli xil g'ayri qonuniy yo'llar bilan respublikamiz hududiga giyohvandlik va psixotrop moddalarni olib kirmoqchi bo'lgan qo'shtirnoq ichidagi biznesmenlarga ko'zimiz tushadi. Xo'sh, bu yo'l jinoyat ekanligini, qanchadan qancha insonlarning umriga zavol bo'lishini bilmaydimi? Yoki qo'lga tushmayman, bu orqali mo'maygina pul ishlayman deb, vijdonini sotadimi?

Har bir inson dunyoga kelar ekan oldida ikkita yo'l turadi. Biri yaxshilikka intilib ezgu amallari ila xalqning hurmatini qozonsa, ikkinchisi esa jamiyatga, yoshlarning oniga zalolat urug'ini sochib ko'plab oilalarning yostig'ini qurutadi. Bu ikki so'z o'rtasida yer bilan osmonchalik farq bor. Asr vabosi deya bot-bot takrorlanayotgan giyohvandlik ham yomonlik yo'lida humronlik qilmoqchi bo'lgan ayrim qo'shtirnoq ichidagi biznesmenlarning xiylasidir. Asfuski, bugungi kunda ularning tuzog'iga ilinayotganlarning soni kam emas. Zaharli qotil deb atashimiz mumkin bo'lgan giyohvandlik insonning tinch hayotiga havf solib, ongini zaharlaydi turli xil aldovlar bilan zalolat botqog'iga botirayotganligini sezmaydi kishi.

Giyohvandlik – nafaqat oilalarning tinch osuda hayotni buzadi balki jamiyatga ham yetarlicha havf soladi. Chunki faqat sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga keladi. Sog'lom va har tomonlamaga yetuk farzand esa kelajak poydevori hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra har yili giyohvandlik dardiga yo'liqqan 200 mingan ortiq kishi hayotdan ko'z yumadi.

Ming asfuski giyohvanlik qurboniga aylanib borayotgan insonlarning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Jamiyatda endigina yaxshi yomonni ajrata boshlagan, bor bilim va salohiyatini ilm yo'nalishida sarflashi kerak bo'lgan yoshlarning ongini zaharlab turli xil aldov yo'llari bilan o'z domiga ilintirayotganlar yo'q emas. Chunki dunyoqarashi endi rivojlanayotgan yoshlarni egri yo'lga boshlash ongini zaharlash juda oson. Yoki to'qlikka sho'xlik qilib nafaqat ota-onasini balki o'z yaqinlarini ham uyatga qo'yayotgan kimsalarni ham uchratishimiz mumkin. Bunda oiladagi tarbiya va muhitning o'rni juda katta ro'l o'ynaydi. Oilada farzandni e'tiborsiz qoldirish yoki haddan tashqari erkalatib yuborish niyati buzuk kimsalarning tuzog'iga ilintirish demakdir. To'g'ri yoki egri yo'lni tanlash har bir insonning o'ziga bog'liq. Shunday ekan har kimni kelajagi o'z qo'lida.

Davlatimizning yoshlarga yaratib berayotgan imkoniyatlarining son sanog'i yo'q. Bularning barchasi yoshlarni o'qitish, ilimli qilish, kasb-hunar o'rgatish, va bosh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun xizmat qiladi. Chunki har qanday buzg'unchi g'oyalar bekorchilikdan kelib chiqadi. Zero kelajak yoshlar qo'lida.





## **TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR**



Asr vabosi balosidan saqlanish uchun faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki oilaning ham jamiyatning ham o'zni juda katta. Shunday ekan oilada ota-onaga birdek ma'suliyat yuklanadi, jamiyatda esa har bir insonning qo'llab quvvatlovi muhim ahamiyatga ega. Xalqimizdagi bir bolaga yetti mahalla ota-ona maqoli bekorga takidlanmagan. Buning zahirida juda katta ma'no yashiringan. Oila ham kichik vatan, unib o'sadigan, kindik qonimiz to'kilgan qo'rg'ondir. Uni mastahkam saqlash, tashqi illatlardan asrash oila boshlig'i bo'lgan otalarning zimmasidadir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 251-moddasida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoki bunday moddalarni yoxud zararli moddalarni qonunga xilof ravishda muomilaga kiritish bir qancha javobgarlikka javob bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, hozirda respublikamizda nafaqat yoshlarni balki katta yoshdagi insonlarni giyohvandlikda saqlash ularni ogoh etish uchun say harakatlar olib borilmoqda. Ogohlik davr talabi sifatida Ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda ogohlikka chaqirmoqda.

